

## **Korpus tahlili asosida Koronavirus (COVID-19) so‘zining leksik-semantik tadqiqi**

*Yulbarsov Ochilbek Obidjon o‘g‘li  
O‘zbekiston Milliy universiteti o‘qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola neologizmlarning lingvistik tahliliga bag‘ishlangan. Pandemiya sharoitida dunyo leksikonida paydo bo‘lgan neologizmlarning dunyo olimlari tomonidan tadqiq etilishi, qolaversa, ayrim tushunchalarning grammatik jihatdan shakllanish holatlari, koronavirus termini bilan bog‘liq tushunchalarning lingvistik jihatdan turli tillarda o‘rganilishiga doir ilmiy mulohazalar tahlilga tortilgan. Koronavirus pandemiyasi davrida kirib kelgan yangi so‘zlar tilshunoslik tomondan sharhlangan. Bundan tashqari ularning nazariy va amaliy muhim bo‘lgan muammolari qisman tahlil qilingan. Koronavirus leksikoni doirasida ishlatilgan “Kovidiot” va “kovidient” so‘zlari veb korpuslardagi qo‘llanilishi o‘rganilgan.

### **Lexical-semantic study of the word "Coronavirus" (COVID-19) based on corpus analysis**

*Yulbarsov Ochilbek Obidjon o‘g‘li*

*Teacher of the National University of Uzbekistan*

**Abstract.** This article is devoted to the linguistic analysis of neologisms. Research by world scientists of neologisms that appeared in the world lexicon under the conditions of the pandemic, in addition, the cases of grammatical formation of some concepts, scientific considerations on the linguistic study of concepts related to the term coronavirus in different languages were analyzed. New words introduced during the corona virus pandemic are interpreted from the point of view of linguistics. In addition, their theoretical and practical problems are partially analyzed. The use of the words "Covidiot" and "covidient" in the framework of the coronavirus lexicon in web corpus was studied.

## Лексико-семантическое исследование слова «Коронавирус» (COVID-19) на основе корпусного анализа

Юлбарсов Очилбек **Обидович**

*Преподаватель Национального университета Узбекистана*

**Аннотация.** Данная статья посвящена лингвистическому анализу неологизмов. Были проведены исследования мировыми учеными неологизмов, появившихся в мировом лексиконе в условиях пандемии, а также случаи грамматического образования некоторых понятий, научные соображения по лингвистическому изучению понятий, связанных с термином коронавирус, в разных языках. Проанализировано. Новые слова, появившиеся во время пандемии коронавируса, интерпретируются с точки зрения лингвистики. Кроме того, частично анализируются их теоретические и практические проблемы. Изучено употребление слов “ковидиот” и “ковидиент” в рамках коронавирусной лексики в веб-корпус.

**Kalit soʻzlar:** *Covid-19, neologizm, Koronavirus, pandemiya, Kun.uz, Daryo.uz, karantin, ijtimoiy masofa, kovidiot, kovidient, lingvistik birlik, karantin, vaksinatsiya.*

**Key words:** *Covid-19, neologism, Corona virus, pandemic, Kun.uz, Daryo.uz, quarantine, social distance, covidiot, covidient, linguistic unit, quarantine, vaccination.*

**Ключевые слова:** *Covid-19, неологизм, Коронавирус, пандемия, Kun.uz, Daryo.uz, карантин, социальная дистанция, ковидиот, ковидиент, языковая единица, карантин, вакцинация.*

Global jarayonlar natijasida hozirda oʻzbek tiliga kirib kelayotgan yangi tushunchalar yoki terminlarning faol ishlatilishi kuzatilmoqda. Tilda ularni ishlatish vaqt va zamon xususiyatiga koʻra insonga qulaylik yaratib beradi. Shu bilan birga neologizmlar maʼlum davr orasida ijtimoiy

voqelikda u yoki bu til leksikoniga qo‘shilganda yangi tushunchaning asl ma’nosini tushunish u qo‘llanadigan soha doirasida kontekstual ma’no kasb etadi. Neologizm tushunchasi dunyo olimlari tomonidan turli aspektda tadqiq etilgan. Chunonchi, Adrienne Lehrer neologizm so‘zlovchi tomonidan tinglovchiga aytilganda uning ong osti tasavvurida perlokutiv maqsad borligini oldindan bilishi lozimligini mulohazalarida keltiradi. Tinglovchining neologizmlarni pragmatik jihatdan tushunish reklamalarda, OAVda uchraydi va bu tinglovchilarning lisoniy ongida konteskt bilan birga anglashiladi. Neologizm yunoncha “neos” - yangi, “logos” - so‘z degan ma’nolarni beradi. Ushbu termin sifatida jamiyat taraqqiyoti, hayotning talab-ehtiyoji bilan paydo bo‘lgan yangi narsa va tushunchalarni ifodalovchi birliklar sanaladi. Neologizmlarning o‘ziga xos jihati shundan iboratki, muayyan vaqt o‘tgach uning tobora ommalashishi natijasida ularning “yangilik” maqomi yo‘qolib, faol so‘zlar qatoriga o‘tishi mumkin, agar u anglatgan narsa yoki biror voqelik ommaviylashmasa, iste’moldan chiqib ketishi mumkin. Masalan, o‘zbek tili uchun muayyan davr oraliq‘ida yangi hisoblangan *marketing, reyting, tender, kompyuter* so‘zlari hozirgi kunda umumiste’moldagi so‘zlar qatoridan joy olgan. Tildagi umumiy neologizmlar bilan bir qatorda *individual uslubiy yoki okkazional neologizmlar* ham mavjud. Bunday neologizmlar mualliflar tomonidan ma’lum bir kontekstda uslubiy talab asosida yaratiladi. Neologizmlar ilmiy asarlarda shu uslubga xos termin sifatida atash (nominativ) vazifasini bajarsa, badiiy asarlarda, uslubiy vazifani bajaradi. Neologizmlarning paydo bo‘lish yo‘llari turlicha bo‘lib, ular tilning mavjud lug‘aviy tarkibi va grammatik qonun-qoidalari asosida yangi so‘z yasash usuli, shuningdek, mavjud so‘zning lug‘aviy ma’nolaridan birini yangi ma’noda qo‘llash yo‘li bilan va boshqa tildan so‘z qabul qilish orqali hosil qilinadi<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Neologizmlar>

Ishlatilayotgan neologizmning aynan qaysi o‘rinda ifodalanishi insonning maqsadiga bog‘liq bo‘ladi. Negaki neologizmlar asosan bir tildan ikkinchi tilga o‘tar ekan, u boshqa til vakili uchun yangi tushunchani kashf qilishi mumkin.

Bugungi kunda texnika-texnologiyaning rivojlanishi natijasida tilimizda neologizmlar soni kommunikativ til leksikoniga singib bormoqda. Ma’lumki, yangi tushunchalar ijtimoiy hodisaning natijasi sifatida turli usulda o‘zlashtiriladi. Neologizmlarning ayrimlari to‘liq o‘zlashtirilishi, kalkulashtirilishi yoki qisman tildagi mavjud muqobili bilan yasalishi mumkin. Neologizmlar tarjima qilinganda so‘z hajmi ma’noni ifodalash uchun bir nechta leksemani talab qilsa, u holda aynan qanday holatda kirib kelgan bo‘lsa shu tarzda ishlatish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Masalan, o‘zbek tili misolida *kompyuter* so‘zini barcha o‘rinlarda *elektron hisoblash mashinasi* tarzida ishlatish uslubiy noqulayliklar keltirishi mumkin. Chunki tarjima qilishda mazmun ifodasi uchun bir so‘zlilik, aniqlik, qisqalik, lo‘ndalik muhim ahamiyatga ega. Zero, so‘zlarning boshqa tildan qay holatda kirib kelgan bo‘lsa, aynan shu shaklda foydalanish tilda neologizmlar degan muhim qatlamni tashkil qiladi. Dunyo tilshunosligida neologizmlarning lingvistik xususiyatlari atroflicha tadqiq qilingan. Ayniqsa so‘nggi yillardagi globallashuv jarayoni neologizmlar almashinish hodisasini yanada jadallashtirdi.

Jumladan, Koronavirus epidemiyasini dunyo bo‘ylab tarqalishi ilmfanda ham o‘z aksini topdi. Xususan, olimlar Muhammad Asif, Deng Zhiyong, Anila Iram, Mariya Nisarlar hammuallifligida tadqiq qilingan “Linguistic analysis of neologism related to coronavirus (COVID-19)” mavzusidagi maqolada koronavirus epidemiyasi jarayonida tibbiyot hamda ijtimoiy olamda vujudga kelgan so‘zlar tahlil qilingan.

Bundan tashqari, Emmanuel Cartier hamda “LIPN RCLN UMR7030 CNRS” jamoasi bilan hamkorligidagi “Dynamique lexicale des langues: éléments théoriques, méthodes automatiques, expériences en anglais contemporain” nomli ilmiy-tadqiqot qo‘llanmasi, Mercedes Roldan-Vendrell va Xesus Fernandes-Dominguezlarning “Neologisms and lexical gaps in specialized languages” nomli ilmiy ishlari nashr etildi. Azarbayjon tilshunosi Turlan Pasha o‘gli Malikov, nemis va ispan tadqiqotchilari Sasha Wolfer va Annette Klosa-Kückelhaus, Jon Jairo va Jiraldó Ortis hamda Xurshid Ahmad kabi tilshunoslarning tadqiqotlarida neologizmlarning ilmiy-nazariy xususiyatlariga to‘xtalib o‘tilgan.

COVID-19 pandemiyasi faqat tibbiyot sohasida emas, balki butun dunyo tilshunosligida yangi tushunchalarning qabul qilinishini ham ta‘minlab berdi. COVID-19 infeksiyasi butun dunyoga katta ta‘sir ko‘rsatdi. Tadqiqotlarda keltirilishicha, 2020-yilgacha odamlarning aksariyati koronavirus va unga aloqador ilmiy matnlardan bexabar edi. Koronavirus 2020-yilning fevral oyi oxirida paydo bo‘ldi va dunyo global tarmog‘ida juda tez tarqaldi. Endi bu global muammoga aylandi. 2020-yil boshidan COVID-19 bilan bog‘liq so‘zlar faol ishlatila boshlandi.

Bundan tashqari COVID-19 epidemiyasi paytida ikki yangi so‘z paydo bo‘ldi: *covidiot* va *covidient*. Dunyodagi barcha mashhur lug‘atlar bu atamalarni har tomonlama aniqlab berishga harakat qildi. Bu ikki *portmanto* so‘zining ma‘nolarini quyidagicha tahlil qilishimiz mumkin. *Covidiot* bu “koronavirus” va “ahmoq” so‘zlarining kombinatsiyasi bo‘lib, u “ijtimoiy uzoqlashish” kabi ko‘rsatma va buyruqlarga rioya qilmaydigan va o‘zini ahmoqdek tutadigan odamni anglatadi. *Covidient* - bu “koronavirus” va “*itoatkor*”ning kombinatsiyasi. [Urbandictionary.com](http://Urbandictionary.com) bergan ma‘lumotga ko‘ra “*Covidiot*” so‘zi “Jamoat salomatligi yoki xavfsizligiga oid ogohlantirishlarni e‘tiborsiz qoldirish” deb ta‘riflaydi. Quyida “*Covidient*”

va “Covidiot” so‘zlarining ishlatilishiga veb korpusda kelgan Covid-19 epidemiyasiga aloqador xabarlardan misollar keltiramiz.

1. *Ijtimoiy masofaning o‘zi koronavirusni ushlab turishga yordam beradi. Nega kovidiotlar buni tushunishmaydi, bilmayman.*
2. *Kovidiotlarga ayting, shifokorlar bilan maslahatlashmasdan dori-darmonlarni qabul qilmang.*
3. *Kovidiotlardan farqli o‘laroq, kovidientlar koronavirus epidemiyasi paytida hukumatning ko‘rsatmalari va buyruqlariga qat’iy rioya qiladigan odamlardir.*
4. *Ko‘plab kovidientlar tufayli komendantlik soati muvaffaqiyatli o‘tdi.*<sup>2</sup>

Bundan tashqari “Koronavirus”, “O‘z-o‘zini karantin qilish” va “o‘zini o‘zi izolyatsiya qilish” so‘zlari lingvistik tahlilga ko‘ra ot hamda murakkab fe‘llar bo‘lib, ular ijtimoiy tarmoqdagi postlar, sharhlar, yangiliklar va hisobotlarda eng ko‘p ishlatiladigan so‘zlar sifatida namoyon bo‘ldi. Masalan, “Koronavirus” so‘zi “Kun.uz”ning lotin alifbosida yuritiladigan saytida ilk bor 2015-yil oktabr oyida ishlatilgan.



<sup>2</sup> Muhammad Asif <sup>a</sup>, Deng Zhiyong <sup>a</sup>, Anila Iram <sup>b</sup>, Maria Nisar. Linguistic analysis of neologism related to coronavirus (COVID-19). Social Sciences & Humanities Open. Volume 4, Issue 1, 2021, 100201

Bu soʻz nisbatan oldinroq qoʻllangan boʻlsa-da, pandemiya davrida uning ishlatilish darajasi keskin koʻtarilganini koʻramiz.

Ijtimoiy tarmoqlar yangi soʻz va iboralarni qabul qilishda muhim rol oʻynaydi. Ijtimoiy tarmoqlar tufayli biz yuqorida keltirilgan neologizmlar hamda *epidemiya, pandemiya, karantin, ijtimoiy masofa saqlash* kabi birliklar bilan tanishdik. Covid-19 pandemiyasi muloqot tilida bir qancha tushunchalarni ham kashf boʻlishiga, mavjudlarini ommalashishiga sabab boʻldi.

### **Covid-19 vaqtida ishlatilgan atamalar.**

<b>Soʻzlar</b>	<b>Izohi</b>
<b>Ijtimoiy masofa</b>	Karantin vaqtida kasallikni yuqib qolishining oldini olishga qaratilgan chaqiriq birlik
<b>Uyda qoling</b>	Karantin vaqtida zarur boʻlmagan holatda tashqariga chiqmaslik uchun qoʻllanilgan birlik
<b>Izolyatsiya</b>	Koronavirusni yuqtirib olgan shaxs oʻzini jamiyatdan vaqtincha uzishni anglatuvchi birlik
<b>Masofadan ishlash</b>	Karantin vaqtida tashkilot xodimlarini ishlash qobiliyatini saqlab qolishda ishlatilgan birlik
<b>Niqob</b>	Karantin vaqtida kasallik yuqtirib olishga qarshi ishlatilgan soʻzlardan biri
<b>Virus</b>	Aynan koronavirus kasalligini jamiyatda ishlatilish shakli
<b>Karantin</b>	Barcha tashkilot va idoralarning favqulodda holat

<sup>3</sup> <https://kun.uz/news/2015/10/13/janubiy-koreyada-yana-bir-marta-mers-koronavirusi-qayd-etildi>

	rejimiga o'tganligini ifodalovchi birlik
<b>Vaksina</b>	Kasallikka qarshi emlanish lozim bo'lgan dorining turi.
<b>Vaksinatsiya</b>	Kasallikka qarshi emlanish lozim bo'lgan jarayonni bildiruvchi birlik
<b>Emlash</b>	Kasallikka qarshi vaksina qabul qilishni bildiruvchi birlik

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, koronavirus epidemiyasi orqali tilda paydo bo'lgan neologizmlar dunyo miqiyosida ma'lum muddat tadqiqot obyekti bo'la oladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Abdurakhmonova, N. Z., Ismailov, A. S., & Mengliev, D. (2022, November). Developing NLP tool for linguistic analysis of Turkic languages. In *2022 IEEE International Multi-Conference on Engineering, Computer and Information Sciences (SIBIRCON)* (pp. 1790-1793). IEEE.
2. ТИХОМИРОВА, С. А. (2016). Развитие мелкой моторики на уроках информатики. In *Образовательные и воспитательные мультитехнологии в современном учебном пространстве* (pp. 31-35).
3. Вахромова, G. D. Q. (2022). Eshitishida muammolari bo'lgan o'quvchilarga o'nli kasrlarni o'qitish texnologiyasi. *Science and Education*, 3(5), 772-777.



4. Muratova, A. (2022). THE USAGE OF LANGUAGE LEARNING STRATEGIES BY LEARNERS. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 4(1).
5. Masharipovich, M. S., Qayumovna, M. A., Anvarovich, R. S., & Ugli, F. F. (2019). Analysis of the modern condition of the methods of control of humidity of agricultural materials. *European science review*, 1(1-2), 103-105.